

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN DONLI
EKINLAR FANIDAN MALAKA TEST SINIVI TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN DONLI EKINLAR FANIDAN MALAKA TEST SINIVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Donli ekinlar fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me‘yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Donli ekinlar

1. Donli ekinlarning umumiy tavsifi;
2. Kuzgi don ekinlari;
3. Bahorgi don ekinlari
4. Dukkakli don ekinlari;
5. Urug‘shunoslik;

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	Donli ekinlarning umumiy tavsifi	Donli ekinlar eng zaruriy oziq ovqat mahsulotlarini yetishtirib beradigan o‘simliklarning katta guruhi hisoblanadi. Donli ekinlarning kelib chiqishi, ahamiyati, hosildorligi, morfologiyasi sistematikasi, rivojlanish bosqichlari, donning kimyoviy tarkibini bilish, farqlash hamda hayotiy vaziyatlarda tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.	9 ta
2	Kuzgi don ekinlari	Kuzgi don ekinlari: kuzgi bug‘doy, arpa, javdar, tritcale kabi o‘simliklarining morfologiyasi, qishga chidamliligi o‘simlikning generativ va vegetativ organlarini, ildizi, poyasi, bargi, boshqoq, gul tuzilishi, mevasi va urug‘i to‘g‘risida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, kuzgi don ekinlari ning biologik xususiyatlari – issiqlikka bo‘lgan talabi, namga bo‘lgan talabi, tuproqqa bo‘lgan talabi va ozuqa moddalarga bo‘lgan talabi hamda boshqarilmaydigan , qiyin boshqariladigan va boshqariladigan omillarni tahlil qilish. Kuzgi don ekinlari yetishtirish texnologiyasi, rivojlanishi va hosil organlarining shakllanish qonuniyatlari to‘g‘risidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.	10 ta
3	Bahorgi don ekinlari	Bahorgi don ekinlari: bahorgi bug‘doy, arpa, suli, makkajo‘xori, oq jo‘xori, tariq, sholi, marjumak kabi o‘simliklarning generativ va vegetativ organlarini, ildizi, poyasi, bargi, boshqoq, gul tuzilishi, mevasi va urug‘i to‘g‘risida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, bahorgi don ekinlari ning biologik xususiyatlari – issiqlikka bo‘lgan talabi, namga bo‘lgan talabi, tuproqqa bo‘lgan	10 ta

		talabi va ozuqa moddalarga bo'lgan talabi hamda boshqarilmaydigan, qiyin boshqariladigan va boshqariladigan omillarni tahlil qilish. Bahorgi don ekinlari yetishtirish texnologiyasi rivojlanishi va hosil organlarining shakllanish qonuniyatlari to'g'risidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	
4	Dukkakli don ekinlari	Dukkakli don ekinlari: ko'k no'xat, no'xat, soya, mosh, loviya, yasmiq, burchoq, xashaki dukkak, vigna, lyupin, vika kabi o'simliklarning generativ va vegetativ organlarini, ildizi, poyasi, bargi, dukkak, gul tuzilishi, mevasi va urug'i to'g'risida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, kuzgi don ekinlari ning biologik xususiyatlari – issiqlikka bo'lgan talabi, namga bo'lgan talabi, tuproqqa bo'lgan talabi va ozuqa moddalarga bo'lgan talabini tahlil qilish. Dukkakli don ekinlari yetishtirish agrotehnikasi, rivojlanish fazalari bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	9 ta
5	Urug'shunoslik	Don ekinlari urug'shunosligi ularning saqlanuvchanligi, turli xil sifat belgilariga ega bo'lishi, urug' pishish davrlari, ekologik sharoitning ta'siri, urug'likka bo'lgan talab va davlat andozasi, urug'ni saqlash uchun tayyorlash, urug'larning unuvchanligi, yashovchanligi, o'sish kuchini aniqlash kabi bir qator bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	2 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %

2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Muloha za qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Atabayeva X.N., Xudayqulov J.B. Donli ekinlar biologiyasining ilmiy asoslari. Azizov B. Paxtachilik. Fan ziyosi nashriyoti 249 bet. Darslik. Toshkent 2022 y.

1. Atabayeva X.N., Xudayqulov J.B. O'simlikshunoslik. Darslik. Toshkent, "Fan va texnologiya", 2018. -407 b.

2. Atabayeva X.N., Qodirxo'jayev O. O'simlikshunoslik. Darslik. Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2006. -180 b.

3. Atabaeva X.N., Umarova N.S. Rastenievodstvo. Uchebник. Tashkent, “Innovatsiya-Ziyo”, 2022.-516 s.

4. Atabaeva X.N., Umarova N.S. Rastenievodstvo. Uchebник. Tashkent, TashGAU “Taxririyat-nashriät”, 2015. -380 s.

5. O.Yakubjonov, S.Tursunov, J.Muqimov. Donchilik. Darslik. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2009. -303 b.

6. Oripov R., Xalilov N. O‘simlikshunoslik. O‘quv qo‘llanma. Samarqand, 2006. -420 b.

7. Умарова Н.С. Растениеводство. Учебное пособие. Ташкент, “ИННОВАЦИЯ-Зиё”, 2023. -280 с.

**Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan - to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*